

**Do'stlik tuman  
axborot- kutubxona markazi  
Metodik - bibliografik xizmat**



**“Kitobdan foydalanishning  
yigirmata qoidasi”**

**USLUBIY TAVSIYANOMA**

**Do'stlik sh**

## **Tavsiyanoma axborot bibliografiya xizmat rahbari Munira Raximova Alimovna tomonidan tayyorlandi.**

Kitob —axborotlarni, g‘oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ‘iboti va tarbiya quoli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko‘ra, hajmi 48 sahifadan kam bo‘lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni, shartli ravishda, kitob deyish qabul qilingan.

Kitob juda qadim zamonlarda insoniyat tomonidan kashf qilingan mo‘jizalarning eng yaxshisidir. Odamlar barcha davrlarda ham kitoblarni yaxshi ko‘rib uni asrab avaylab saqlashga harakat qilganlar. Bizga yaqin o‘tmishdan xabar berilishicha Amir Temur bobomiz davrida katta kutubxona bo‘lgan va u yerdagi kitoblar sandiqda saqlangan ekan. Sandiqlarning har biri alohida nom bilan atalgan.

Amir Temur kitob haqida shunday deydi: Kitob (bitik) barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql- idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir. Shunday ekan bugungi kunda biz ham bebaho boyligimiz bo‘lmish kitoblarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishimiz kerak. Chunki kitob tayyor holga kelib siz va bizning qo‘limizga yetib kelguncha sarflanadigan mehnatniyam hisobga olishimiz kerak.

### **Kitob haqida afsona**

Naql qilishlaricha o‘tgan zamonda bir hukmdor vaziru ulamolarini chaqirib: “Dunyoda eng zo‘r, kerakli, hamma narsadan xabardor qiluvchi narsa nima?” – deb savol beribdi. Birov “Dunyoda eng zo‘r narsa – qilich” desa, ikkinchisi, “Eng keraklisi – non”, debdi. Hamma narsadan xabar beruvchi narsa – “Oynai jahon”, deguvchilar ham topilibdi. – Uch kun muhlat beraman, – debdi podsho hech kimning javobi yoqmaganligidan darg‘azab bo‘lib.

Qo‘shni podsholikda ta‘rifi yetti iqlimga ketgan donishmand yashayotganidan vazirning xabari bor ekan. Vazir: “Podshohning savollariga shu donishmanddan boshqa hech bir kishi javob topa olmaydi”, – deb o‘ylabdi-da, uni izlab topib podshohning oldiga olib kelibdi.

– Dunyoda eng kerakli narsa nima? – deb so‘rabdi donishmanddan podsho.

– Kitob! – debdi donishmand hech ikkilanmay.

– Kitob?!

– ajablanibdi hukmdor.

– Ha, dunyoda eng kerakli narsa kitob, – takrorlabdi so‘zini donishmand. – Inson uchun hayotda ikki narsa eng mo‘tabar va aziz. Bu – non bilan kitob. Shu boisdan ham non qanchalik mo‘tabar sanalsa, kitob ham shunchalik aziz.

Non – rizq-ro‘z, dasturxon ko‘rki, hayot barakasi. O‘tmishdan hikoya qiluvchi tarix, bugunni aks ettiruvchi ko‘zgu, ertangi kunni aytib beruvchi mo‘jiza esa kitobdir. Poklanish, iymon butunligi, ruhiy boylik ham kitobdandir. Kitob insonning maslahatgo‘yi, doimiy hamrohidir. “Kitob ko‘rmagan odam nodondir, kitob kirmagan uy qorong‘u zimistondir”, – deydi donishmandlar.

– Shahanshoh, donishmand bu savolingizga ham to‘g‘ri javob qildi, – deyishibdi saroy ahli.

– Suvu quruqlikdagi hamma joylar, dunyodagi ezgu elatlar haqida xabar beruvchi ham, seningcha, kitobmi? – achchiqlanibdi hukmdor.

– Ha, kitob, – dadil javob beribdi donishmand. – Dunyoni shundoqqina ko‘z oldingizga keltirib qo‘yadigan ham, hech ko‘rmagan va bir umr ko‘rolmaydigan kishilar hamda joylar bilan tanishtiradigan ham shu kitobdir. Mana meni olib ko‘ring. Men tug‘ilib o‘sgan qishlog‘imdan boshqa hech bir joyda bo‘lmaganman. Ammo Marvdan Mashriqqacha, Yamandan Yasargacha yaxshi bilaman, desam maqtanmagan bo‘laman. Yer yuzida jamiki odamzod bor – ularning hayoti, odatlari, rasm-rusumlaridan ozmi-ko‘pmi xabardorman. Bunga ana shu kitob orqali erishganman. Qur‘oni Karim, Hadisi sharifning mo‘jizasini aytmay qo‘ya qolaylik.

Donishmandning bergan javobidan qoniqqan podsho:

“Saroyimda qolib, bosh maslahatgo‘yim bo‘l”, – deb qanchalik yalinmasin, donishmand ko‘nmabdi, undan olgan oltinlarga esa bozordan kitob xarid qilib, qishlog‘iga qaytibdi...



## “Kitob – hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir”

Ilm o‘rganish har bir mo‘min uchun farzdir. Ilm tolibi uchun hamma narsa, hatto dengizdagi baliqlar ham gunohini so‘rab istig‘for aytadi.

Hadisdan

Ilm ibodatdan afzaldir, u dinni tutib turuvchi ustundir.

Hadisdan

Ilm ikki xildir: biri qalbdagi ilm bo‘lib, u foydalidir. Ikkinchisi tildagi ilm bo‘lib, u Tangri huzurida banda zarariga dalil bo‘ladi.

Hadisdan

Kitob olimlar fikrining panohgohi, dono kishilar bo‘stonining chamani, oddiy kishilarning tomoshagohidir. U kimsasiz kishilarga dil ochuvchi bog‘, ko‘ngli shikastalarga rahnamodir. U barcha yerda barcha bilan oshino, dardli kishilar diliga davodir.

### **Orifiy kitob vasfida quyidagicha tarannum qilgan:**

Bir do‘stki, hech kimga bermagan azob,  
Uzoq sinab ko‘rdim, bilsang, u kitob!  
Sirni yashirmaydi o‘quvchisidan,  
Xabar berar senga yozuvchisidan.  
Xilvatda sen bilan bo‘lib u ulfat,  
Jimgina quradi yoqimli suhbat.  
Hech kimdan qolishmas bilimli ahhob,  
Undan so‘ramasang, bermaydi javob.  
Muhammad Jabalrudiy

Kimki kitobga ko‘p boqsa, kitob uning zehnini ochadi, zavqini oshiradi, so‘zga chechan qiladi.

Kitob yolg‘izlikdagi eng munis hamdamdir.

Kitob o‘tmishdan ham, kelajakdan ham xabar beruvchidir.

Kitob insondan hech narsa tilamaydi, ammo uni kamolga yetkazadi.

Kitob odob-axloqning koni, bilimning esa bulog‘idir.

“Otalar so‘zi”



Abu Bakr al-Xorazmiy o‘lim to‘shagida edi. Undan:  
Ko‘ngling nimani xohlaydi, ishtahang nimani tusamoqda? – deb  
so‘radilar.

U:

Kitob yuziga bir qarasam! – dedi.

“Favokih al-julaso”

Kitobdan yaxshiroq do‘st yo‘q jahonda,  
G‘amxo‘ring bo‘lgay u g‘amli zamonda.  
U bilan qol tanho, hech bo‘lmas ozor,  
Joningga yuz rohat beradi takror.

Abdurahmon Jomiy

Kitobni birovdan qarz so‘raganni  
Oqillar safiga qo‘shmay qo‘ya qol,  
U goh qo‘yindadir, gohi bag‘rida  
Kitob egasining mahbubi misol.  
Birov, kitobingni berib tur, desa,  
Ablahlar so‘zidek keladi malol.

Alisher Navoiy

Hamsuhbat topmasang, adab bog‘in top,  
Bahri diling ochadi shirin so‘z kitob.  
She‘r bilan do‘st bo‘lsang, fikring uyg‘otar.  
Ma‘no gulobidin may – qadah tutar.  
Kitobga do‘st bo‘lsang, ilm-odob kelur,  
Do‘stlikdan farog‘at, lazzatu surur.

Abu Ahmad al-Kotib

O‘qimishli, savodli (kishilar) undan foydalansin deb  
qo‘llanma uchun kitob bezadim.

Ahmad Yugnakiy

Ochsangiz varag‘ini, ko‘ringusidir turfa bog‘,  
Jilva bergay ko‘zingizga navbahor fasli bu chog‘.  
Shodlik bosib ko‘ngilni, hech qoldirmaydi dog‘,  
Doim bo‘stonni yashnatuvchi bog‘bondir kitob.

Dilshod Otin

Tangri iltifoti menga bo'lsa yor,  
Kitobni bezasa naqshi arjandiy.  
Umidim shuldirki, tortmayin malol,  
"Guliston" o'qigan chekmas diltangiy,  
Har nechuk gul dilingni qilmas chog',  
"Gulistonimdan" ol bir yaproq.  
Gul zamoni besh-olti kundir, bas,  
Bu "Guliston" hamisha pok nafas.

Sa'diy Sheroziy

Sen kabi minglarni ko'rdi bu jahon,  
Ulardan qolmadi nom ila nishon.  
Hikmatdan nazm-la bir kitob bitgin,  
O'zingdan yodgorlik qoldirib ketgin.

Shahobiddin Abdukarim o'g'li

Kitob yetkazur kishini baxtga,  
Omoch sohibini ko'tarar taxtga.

Shayx Nosif

Ey, hayot mazmunin izlagan odam,  
Har bir kitob satrin dilga qil malham.  
Bedil "Ruboyot" in sayr et, topursan,  
Dardu ibrat, tasavvur, umr tadqiqin ham.

Bedil

Kitob bergan odobni ota-onang berolmas,  
Dili so'qir kitobdan odob gulin terolmas.

Sh. Shomuhamedov

Kitoblar inson tafakkuri javohirlarini  
yig'ib, avlodlarga meros qoldiradi.

Oybek

Har yili bug'doy unar  
shudgor shitobdan,  
Xuddi shunday unar  
ilm kitobdan.

Josef Jevri

Kitoblar zamon to‘lqinlarida suzuvchi va o‘zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir.

Frensis Bekon

Kitob inson ko‘z o‘ngida noma‘lum faktlarni ochadi.

Gershel Jonfrederik

Kitobni qadrlamoq kerak, bu tafakkur qasriga izzat-ehtirom bilan qadam qo‘ymoq lozim.

Gersen

Kitoblar xazinasini, umuman olganda, hayotning o‘ziga xos badiiy ko‘zgusidir.

N. Rubakin

Jajji bir o‘rmon,  
Go‘zalsan kitob,  
Har varag‘ingda  
xushbo‘ylik, gulob.

Pablo Neruda

Kitob bo‘lmasa, kitobdan yog‘ilib turgan ziyo bo‘lmasa, inson taraqqiyotining hozirgi yorug‘ cho‘qqisiga yetmas edi.

G‘afur G‘ulom

Oddiy qog‘oz emas, asli, kitoblar –  
Tafakkurdan tug‘ilgan hur oftoblar!

O. Hojiyeva

Hayotni sevgan kishi kitobni sevadi, zero, kitob – hayot qomusi, kitob – dardkash, hamsuhbat, kitob – muallim, kitob – ilhomchi.

Niholning voyaga yetishi uchun suv naqadar zarur bo‘lsa, odam aqlining barkamol bo‘lishi uchun kitob shu qadar zarurdir.

Yo. Shukurov



Kitobdan yaxshi do‘st yo‘qdir dunyoda,  
Kitob kirgan uyda nur, shuur yashar!  
Qatrada daryo bor, quyosh – ziyoda,  
So‘z-kamol sehriga sig‘inar bashar.

N. Narzullayev

Kim kitobni sevsa, u hech qachon sodiq do‘sti, haloskor, maslahatgo‘yi, quvnoq birodari, haqiqiy yupatuvchisi yo‘qligini sezmaydi. O‘qish, o‘rganish, fikr yuritish bilan odam o‘zini beixtiyor ovutadi va bo‘sh vaqtini ham ishq, hatto taqdirning barcha kutilmagan hollarida ham ko‘ngilli o‘tkazadi.

Donolar bisotidan terilgan bu javohirlarga amal .

### **Mana sizning e‘tiboringizga tavfsiya qiladigan yigirmata qoida bilan tanishing:**

#### **1-qoida:**

Kitobni buklamang. Uning yupqa muqovasi sizni unga undasa ham. Agar kitob yaxshi ochilmasa, unga kuch ishlatmang va ochiq kitob ustiga hech narsa qo‘ymang. Qo‘lingizda xat cho‘p bo‘lmasada burchaklarini buklashga urinmang.

#### **2-qoida:**

Qiyshayib ketgan muqovani va g‘ijimlangan sahifalarni to‘g‘irlashga urinmang.

#### **3-qoida:**

O‘qiyotganingizda kitobni tushirib yubormang. Kitob burchaklarini qattiq narsalarga urib o‘ynamang.

#### **4-qoida:**

Kitobni yerda yoki deraza oldida qoldirmang. Kitob quyosh nuri va changdan bir xil zaralanadi.

#### **5-qoida:**

Kitobda shaxsiy chizgilar, so‘zlar, nasihatomuz iboralar qoldirmang hamda o‘quv qurollarining har ikkala tomonini tekkizmang.

#### **6-qoida:**

Biror narsa yozmoqchi bo‘lsangiz qog‘ozingiz tagiga kitobni qo‘ymang.

#### **7-qoida:**

Kutubxonada va uyda kitob o‘qiyotgan bo‘lsangiz (ovqat, yelim, shishada bo‘yoq yopishtiruvchi tasma va turli shirinliklarni iste‘mol qilgan xolda) kitobga qo‘lingizni tekkizmang.

**8-qoida:**

O‘qish paytida ochiq kitob ustida qalam uchini ochmang, sharbat, qahva, choy ichishdan o‘zingizni tiying.

**9-qoida:**

Kitob eski va varoqlari titilgan bo‘lsa unga ko‘pam qo‘l tekizavermang. Imkon qadar kitobga ehtiyotkorona munosabatda bo‘ling. Garchi sizni ogohlantirishgan bo‘lsa ham.

**10- qoida:**

Sartlar bo‘ylab barmog‘ingizni yurgizishdan tiyiling. Xatcho‘p bilan o‘qishga xarakat qiling. Ya‘ni qog‘oz parchasidan tayyorlangan xatcho‘p ishlatib.

**11-qoida:**

Kitobni kutubxonadan olgan vaqtingizda ta‘mirlab emasligiga ishonch xosil qiling. Agar kitobda kamchilik sezsangiz unda darhol kutubxonachini ogohlantiring va kitobni boshqasiga almashtiring yoki ta‘mirlab berishini so‘rang.

**12-qoida:**

Qo‘lingizga tushgan har qanday buyumdan xatcho‘p sifatida foydalanishdan o‘zingizni tiying.

**13-qoida:**

Kutubxonada kitob o‘qish uchun kirsangiz kiyimlaringiz va buyumlaringizni saqlash xonasida qoldiring.

**14-qoida:**

Agar siz olgan kitob ingichka ip bilan bog‘lab qo‘yilgan bo‘lsa unda kutubxonachidan uni yechib berishini so‘rang.

**15-qoida:**

Agar kitob olganingizda kitob sahifalari ochilmagan ya‘ni qirilmagan bo‘lsa o‘zboshimchalik qilib kitobni qirqmang. Kutubxonachidan maxsus pichoqcha yordamida qanday kesish kerakligini so‘rang.

**16-qoida:**

Agar kitobning nusxasidan foydalanish imkoni bo‘lsa asl nusxadan ko‘ra afzalroq deb biling. Chunki nusxani qayta tiklash imkoni bo‘ladi.

**17-qoida:**

Ochiq kitobni stol chetiga osiltirib qo‘ymang.

### **18-qoida:**

O‘qish joyingizdan boshqa joyga zarurat uchun chiqsangiz kitobni unutib qoldirmang.(Masalan do‘kon, bufet, chekish joyi va hakozolar).

### **19-qoida:**

Sizga berilgan kitoblarni o‘z vaqtida kutubxonaga qaytaring. Chunki kitoblar uzog‘i bilan berilish muddati 10-15 kun.

### **20-qoida:**

Kitob o‘qish maboynida ko‘zingizga zarar yekazishni istamasangiz ko‘zingiz va kitob orasidagi masofani o‘lchab oling.Buning uchun stol ustiga kitobingizni qo‘yib tirsagingizni ham stol ustiga tekkazib qo‘lingizni ko‘zingizga tekkazasiz mana shu masofani saqlagan xolda o‘qisangiz ko‘zlaringiz yana uzoq vaqt ko‘zoynaksiz kitob o‘qishi mumkin.

Aziz kitobxonim mana shu yigirmata qoida kitobga va o‘zimizning sog‘ligimiz uchun juda foydalidir.Kitoblar uzoq umr ko‘rsin kelajak avlod ham bu me‘rosdan bahramand bo‘lsin desangiz barcha qoidalarga rioya qiling.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

*Bolalar ensiklopediyasi.-T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.” Davlat ilmiy nashryoti,2009.-664 b.*

*“Kitob va mutoolaa madaniyati” Sh .Rashidov nomidagi Jizzax vioyat Axborot –kutubxona markazi usluiyat bo‘limi,2017 y.40 b.*

*Internet manbalari.*